
2024-YIL 4-CHORAGIDA JAMOATCHILIK FIKRI ASOSIDA SHAKLLANTIRILGAN
TADBIRLARNI MOLIYALASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MABLAG'LAR
HISOBOTI TO'G'RISIDA



XALQ DEPUTATLARI SO‘X TUMANI KENGASHINING QARORI

Сўх тумани А.Темур -95 +998 73 462 5054

2024-yil 27-dekabr

VII-3-019-11-159-K/24

So‘x tumani

2024-yil 4-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagи “Budget ma’lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatini Kengashining 2024 yil 30 yanvar kungi “Tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-666- IV-sonli qaroriga asosan, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan jamoatchilik fikri asosida shakllangan takliflarni soxa vakillari tomonidan amalga oshirish qiymatini aniqlash Qarori, shu bo‘yicha xalq deputatlari So‘x tuman Kengashining 2024-yil 19-fevraldagи “Mahalliy budget mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minalash to‘g‘risida”gi VI-83-13-11-159-K/24 sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27,29-bandlari ijrosini ta’minalash maqsadida xalq deputatlari Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari So‘x tuman Kengashining 2024-yil 19-fevraldagи “Mahalliy budget mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minalash to‘g‘risida”gi VI-83-13-11-159-K/24 -sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2024-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan So‘x tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Iskandarovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

**2024-yil 4-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga
yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida**

2024-yil IV-choragida “Tashabbusli budgetlashtirish” jarayoni natijalari bo‘yicha ma’lumotlar 1 va 2-ilovaga muvofiq;

2024-yil IV -choragida “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasi mablag‘larining shakllanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 3-ilovaga muvofiq;

2024-yil IV -choragida “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Iskandarov), Kambag‘allikni qo‘llab quvatlash bo‘limi (G‘.Melnikov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (I.Mastonov) hamda mahalla fuqarolari yig‘inlari bilan birgalikda mart oyida o‘tkaziladigan “Tashabbusli budgetlashtirish” jarayoniga keng jamoatchilikni jalb etish bo‘yicha targ‘ibot tashviqot ishlarini olib borsinlar.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Iskandarov), tuman hokimligi axborot xizmati (A.Juraev) Tashabbusli budgetlashtirish natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda “Ochiq budget” axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Sadirbekov), ijrosini ta’minalash moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman hokimining birinchi o‘rinnasiga zimmasiga yuklatilsin

Kengash raisi



SAYIDMUSAYEV
SAYIDBAXROM
SAYIDBURXONOVICH

Xalq deputatlari So‘x tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-019-11-159-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Tashabbusli budgetlashtirish natijalari bo‘yicha
MA’LUMOT**

So‘x tumani

28.12.2024 y

T/r	Ko‘rsatkich nomi	Summa
		(ming so‘m)
1	yil- chorak boshiga qoldiq	378 321,6
2	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga o‘tkazilgan mablag‘lar*	19 885 846,9
3	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar**	19 860 810,0
3.1.	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to‘langan mablag‘lar	19 860 810,0
3.2.	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to‘lab berilmagan qoldiq mablag‘lar	0
4	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasidagi qoldiq mablag‘lar	865 720,5

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-07 15:53:27